

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARDA GO‘ZALLIK KONSEPTI TAHLILI

Nargis Hoshimova Abdullayevna

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Rahimova Gulzoda Murotjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti II kurs magistranti
Email: gulzodayusupova56@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarning kommunikativ va uslubiy holatini hisobga olib aslyatdagi birliklar ta‘sirida ularni tarjima tili uchun g‘ayritabiiy sharoitlarda qo‘llash, aksariyat tarjima tili madaniyati yo‘l qo‘ymaydigan birikmalarning hosil bo‘lib qolishiga, ba‘zan esa ma‘no va vazifaning mutlaqo o‘zgacha talqiniga sabab bo‘lishi mumkinligini hisobga olib ingliz va o‘zbek tillarida go‘zallik konseptining qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Frazeologizm, frazeologik birlik, freym, skript, geshtald, lingvomadaniyat, konsept.

АНАЛИЗ КОНЦЕПТА КРАСОТА ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье с учетом коммуникативно-методической ситуации фразеологических единиц под влиянием исходных единиц их употребление в ненормальных для языка перевода условиях приводит к образованию сочетаний, недопустимых в большинстве культур русского языка. Язык перевода, а иногда и смысл с учетом того, что нет и задача могут вызывать совершенно разную интерпретацию, рассмотрим употребление понятия красота в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: Фразеологизм, фразеологизм, фрейм, сценарий, гештальт, лингвокультура, концепт.

ANALYSIS OF THE CONCEPT OF BEAUTY IN PHRASEOLOGISMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract: In this article we are talking about a communicative and methodological situation in which the original use cases are acceptable in conditions that are abnormal for translation, using combinations that are unacceptable in most cultural languages. The language of translation, and sometimes the meaning, given that there is no and the task can become a completely different interpretation, consideration of the concept of using beauty in English and Uzbek.

Keywords: Phraseologism, phraseological unit, frame, script, gestalt, linguistic culture, concept.

Kirish:

“Frazeologizm, – deb yozadi A. E. Mamatov, – bu tuzilishi jihatdan so‘z birikmasiga yoki gapga teng bo‘lgan, umumlashgan ma’no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, turg‘un leksiksemantik birlikdir” (4) I.V.Arnold esa frazeologizmlarni: “Umumiy belgilari, ularning turg‘unligi, ma’nolarining yaxlitligi va komponent tarkibining alohida-alohida rasmiylashishi”, deb hisoblaydi (1). Binobarin, ingliz tilining frazeologik boyligi diniy, tarixiy, afsonaviy xarakterga ega birliklardan iborat.

Inglizcha frazeologik lug‘atlar va badiiy adabiyotlarda ishlatilgan frazeologik birliklar tahlili natijasida inson tashqi ko‘rinishini estetik baholovchi frazeologizmlarning miqdor jihatidan ko‘p ekanligi kuzatildi. Ingliz tilidagi frazeologik material xunuklikni ifodalashdan ko‘ra ko‘proq go‘zal tashqi ko‘rinishni ifodalashga qaratilgani ma’lum bo‘ldi. Insonning go‘zal ko‘rinishi ifodasi quyidagi 50 dan ortiq iboralarda mujassamlangan: sweets to the sweet; out of this world; graceful as a swan; prince charming; as pretty as a picture; may queen; the fair sex; soft as down; as handsome as a paint; as shining as star; the fair sex; a dolly bird; ; a slick chick; fair as lily; a feast to the eye; a glamour girl; as sweet as honey; as handsome as young Greek god; as pure as lily; a fair treat, catch somebody’s eye, give somebody the eye, make eyes at, eye candy, eye catcher, eye fed, honey eyed, out of sight, slightly, lady-killer, to live in style, heart stopping, Barbie doll, dollybird, the beautiful, cover girl, cheese cake, jollie lady, bombshell, ducky, sylphlike, coockie, dishy.

Frazali fe’llar: pin up, add on, doll up, dress up, beat down. (3) Ushbu keltirilgan frazeologik iboralardan ham bilish mumkinki, inson, birinchi navbatda, boshqa insonning tashqi ko‘rinishini ko‘rish sezgisi orqali qabul qiladi. Demak, go‘zallik va xunuklik haqidagi eng birinchi estetik baho ko‘rish orqali beriladi va yoqish hamda yoqmaslik haqida xulosa chiqariladi. Ko‘rish sezgisi orqali ko‘rib, go‘zallikka maftun bo‘lish haqidagi frazeologik iboralar, ayniqsa, ingliz lingvomadaniyatida ko‘p uchraydi. Bular quyidagilardan iborat: eye-appeal; feast one’s eyes on; have one’s eyes glued on; not to take one’s eyes from; easy on the eyes; easy to look at; collect eyes.

Ingliz tilida eye appeal o‘zbek tilida ko‘zni qamashtirmoq; ingliz tilida to have ones eyes glued on o‘zbek tilida ko‘zini uzolmaslik ololmaslik degan ma’nolarni anglatadi. For smb’s fair eyes iborasidagi eye(ko‘z) so‘zi esa metonimiya asosida shakllangan holda go‘zallikni ifodalagan. Birovning chiroyli ko‘zlari uchun, aniqrog‘i, birovning go‘zalligi uchun degan ma’nolarda qo‘llanilgan. Shu iboraning o‘zi ham inson uchun go‘zallikning qiymati naqadar baland ekanligini, hissiy hayratlanish aqliy hayratlanishdan ustun turishining yaqqol dalili. Yoshlik va salomatlik tushunchalari orqali «go‘zallik» konseptining ifodalanishi e’tiborli. Yoshlik va hayotning jo‘sh

urushi haqidagi obrazlar ingliz frazeologik iboralarida “go‘zallik”ning asosiy belgisi sifatida ko‘rinadi, ya’ni yoshlik bor ekan, salomat ekansiz, go‘zallik ham sizga hamrohdir: as handsome as young Greek god; as fresh as daisy; like a fly in amber; lose one’s roses; off colour; without colour. Yosh yunon xudosi go‘zalligi unda yoshlik nafasining ufurib turganligi bilan belgilanishi; qahrabo ichidagi chivin singari yaxshi saqlanganlik insonning qarigan chog‘ida ham vaqt o‘z hukmini o‘tkaza olmaganligi kabi sifatlar insonga ko‘rk berib turishi oddiy haqiqat.

Ingliz millati, xuddi barcha boshqa millatlar singari, tabiat go‘zalliklaridan zavqlanadi va uning belgilarini insonda ko‘rgandek bo‘ladi. Zoomorfizmlar metafora va o‘xshatishlar shaklida namoyon bo‘ladi. (2) Zoomorfizm deganda inson yoki narsa-predmetning obrazli tavsifini shakllantirish maqsadida hayvonlar timsolidan ko‘chma ma’noda foydalanish tushuniladi. Bu obrazlardan hayratlanish, qiyoslash natijasida lisonda o‘z ifodasini topadi: a dolly bird, fair as lily; May Queen; graceful as a swan; as shining as star; mild as a dove. Demak oqqush, moychechak guli, liliya, kapalak, kaptar, atirgul, chiroyli qush, bahorning may oyi, yulduz singari obrazlar ingliz lingvomadaniyatida go‘zallik milliy madaniy maydonidagi qadriyatlardir. Ingliz frazeologik birliklarida ta’m bilish sezgisi orqali ham go‘zallikni his qilish quyidagi iboralarda ko‘rindi: sweets to the sweets; be too sweet for words. To be too sweet for words iborasi “shunchalik chiroyli, hatto so‘z ham uni tasvirlashga “ojiz” degan ma’noda keladi. Bundan ko‘rinadiki, til tasvirlashga ojiz bo‘lganda, boshqa yoqimli sezgi va hissiyotlar, ya’ni, shirinlik bilan go‘zallik qiyoslangan. Bundan tashqari as handsome as young Greek god; like an angel; out of this world kabi iboralarda ilohiy obrazlarga qiyoslash; Prince charming; the belle of the ball iboralarida ertaklardagi obrazlarga qiyoslash; as pretty as picture; as handsome as paint/iboralarida san’at asarlariga qiyoslash orqali “go‘zallik” konseptining ingliz lingvomadaniyatida namoyon bo‘lishining guvohi bo‘ldik. Kognitiv stereotiplar, modellar (freym, skript, ssenariy, geshtalt) inson tarbiya topgan madaniy muhit bilan bog‘liq, zero kognitiv birliklar madaniyatda mavjud bo‘lgan voqelik idroki asosida shakllanadi. (8)

Ingliz lingvomadaniyatining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, unda ko‘m-ko‘k ko‘zlar, oltin rang va kumush rang sochlar inson tashqi ko‘rinishidagi go‘zallik belgilaridir. Aynan shu belgilari bor insonlar inglizlar uchun yoqimli va suyuqli ekanligini quyidagi frazeologik iboralarda ko‘ramiz: the blue eyed boy; the golden (white) headed boy; the fair-haired; white-haired boy. Frazeologik birliklarning kommunikativ va uslubiy holatini hisobga olmasdan asliyatdagi birliklar ta’sirida ularni tarjima tili uchun g‘ayritabiiy sharoitlarda qo‘llash, aksariyat tarjima tili madaniyati yo‘l qo‘ymaydigan birikmalarning hosil bo‘lib qolishiga, ba’zan esa ma’no va vazifaning mutlaqo o‘zgacha talqiniga sabab bo‘lishi mumkin (9). Blue eyed boy

iborasini lingvokognitiv tahlil etadigan bo'lsak, metonimiya hodisasi natijasida mehr-muhabbat ma'nolarida qo'llaniladigan bu ibora, ya'ni: ko'k ko'zli bola chiroyli va u mehr-muhabbatga loyiq freymini hosil qiladi. Ingliz milliy-madaniy jamiyatida ko'k ko'zga nisbatan ijobiy stereotiplar mavjud bo'lsada. Blue eyed boy iborasi arzanda ma'nosidagi salbiy konnotasiyaga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklar Sh.Rahmatullayev, M.I.Umarxodjayev, A.M.Bushuy, A.E.Mamatov, B.Yo'ldoshev kabi olimlarning ishlarida maxsus o'rganilgan (10).

Frazeologizmlarning lingvokognitiv va milliy-madaniy jihatlarining tadqiqi N.Z.Nasrullayeva, A.A.Nosirov, D.K.Baxranova, L.E.Xolmuradova, Z.Q.Teshaboyeva tomonidan amalga oshirilgan. (2) Frazeologik birliklarning milliy-madaniy nuqtai nazardan tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlarda frazeokonsept tushunchasi, muayyan madaniyat til tashuvchilarning milliy mental maydonlarini tahlil etish, u yoki bu tildagi frazeologizmlarning mental mohiyatini o'rganish kabi masalalar tadqiq qilingan.

Muhokama va natijalar:

Inglizlar estetik qadriyat sifatida oq-sariq sochlarning har xilini farqlay olishadi: olov rang sariq sochlar; kumush (platina) rang sariq sochlar; bo'yalgan sariq sochlar. Tafakkur jarayonida ular madaniy ssenariylarni yuzaga keltiradi va aynan o'sha kognitiv birliklar lisoniy voqealanish jarayonidan chetda qolmay a bushfire blonde; a platinum blonde; a peroxide blonde (1) sifatida lisonidan o'rin va nom oladi.

Xulosa shuki, ingliz frazeologik iboralarida "go'zallik" konseptiga oid quyidagi obrazlar mavjud: yoshlik, salomatlik, tabiat go'zalliklari, ilohiy, tasavvuriy ertak obrazlari. Ko'rish orqali go'zallikdan hayratlanish ingliz frazeologik iboralarida "ko'z" obrazi orqali keng ko'lamda qo'llanilgan. Inson tashqi ko'rinishini estetik baholaganda inglizlar ko'proq och, yorqin ranglarni afzal ko'rishadi.

O'zbek tilida esa jonli yoki jonsiz mavjudotlarga ko'z orqali estetik baho berilar ekan, unda ko'rish idroki alohida o'rin tutadi. Go'zallik, avvalo, ko'z orqali idrok etilib, so'ngra tafakkur tahliliga o'tadi. Lekin ko'rilgan ob'yektning go'zalligi sub'yektning barcha his qilish organlarini ishga soladi. Quyidagi keltirilgan o'zbekcha iboralarda fikrimiz o'z isbotini topgan: ko'zga o'tday ko'rinmoq; ko'zni qamashtirmoq; ko'zga tashlanmoq; ko'zga yaqin bo'lmoq (1). Qizing kundan kun ko'zga yaqin bo'layotir kelinjon, ehtiyot bo'l (Oydin). Bu iboradagi yaqin so'zining semasi denotativ ma'noni emas, balki jalb qiladigan ma'noni ifodalamoqda. Yuqoridagi gapda nega aynan "Ehtiyot bo'l" deyilgan? Ko'zga yaqin bo'lish aybmi? Bu savollarning falsafiy javobi lisonda o'z aksini topgan, ya'ni es-hushini olib qo'yimoq; yuragidan urmoq; boshini aylantirmoq; jodu qilib qo'yimoq; asir etmoq; ofatijon bo'lmoq (6)kabi iboralarda go'zallik sabab bo'lmish g'alayon, tartibsizliklarga

olib boruvchi hislar tug‘yonini anglashimiz mumkin. Ya’ni, bu ko‘zga ko‘rinib qolgan ob‘yekt go‘zalligi qaysidir sub‘yektlarning yuragidan urib bo‘lg‘usi tartibsizliklar freymiga olib kelmasin uchun kampir tafakkuridagi ssenariy «Ehtiyot bo‘l, kelinjon» frazasini miyada tanlagan. Yuqorida izohlangan es-hushini olib qo‘ymoq; yuragidan urmoq; boshini aylantirmoq; iboralarida zavq, muhabbat, go‘zallik uch konsept bir-birini to‘ldirgan.

Demak, konseptlar bir-biridan ajralmas tarzda til birliklarini tashkil etar ekan. E’tibor berilsa, o‘zbek lingvomadaniyatida inson go‘zalligi ko‘proq tabiat go‘zalliklariga qiyoslangan holda lisonda namoyon bo‘ladi. Go‘zallik tabiat bilan uyg‘unlikda inson hislarini junbushga soladi va shu tarzda ayol ta’rifidagi iboralar yuzaga keladi: gulday ochilmoq; tovusday yaltirab; g‘uncha singari ochilmoq; yulduzi issiq; oy desa oydek; kun desa kundek kabi iboralar fikrimiz dalilidir.

Misol: Nuqul atlasu, girbishin kiyib, tovusday yaltiragan qizlar bilan bog‘ to‘lib ketadi. (Oybek); O‘zi ham bo‘y yetib gulday ochilib kelayotgan payti edi (P. Tursun)

Foydalanilgan manbaalar ro‘yxati

1. Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка. – М.:1973. – С.160
2. Вахронова D.K. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o‘zbek va ispan tillari misolida): avtoref. falsafa fan. dokt. diss. (PhD). –T., 2017. – B.16
3. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. –М.: Русский язык,1984.
4. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. –Toshkent: 1991. – B.210
5. Roget’s Thesaurus of English Words and Phrases. – Glasgow:1982. – P.506.
6. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. I tom.–Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 405 b
7. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – II tom. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 405 b
8. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2013. – B.72.
9. Teshaboyeva Z.Q. “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy-madaniy xususiyatlari: avtoref. falsafa. fan. dokt. diss. (PhD). – T., 2017. – B.20.
10. Умаржоджаев М.И.. Основы фразеологии / Андиж. гос. пед. ин-т языков. – Ташкент: Фан, 1983.; Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: avtoref. diss... dokt. filol. nauk.–T., 1999.; Айназаров Г.Б. Симметричные двухкомпонентные фразеологизмы в каракалпакском языке.– Нукус: 2000.; Бушуй М.А. Лексикографическое описание фразеологии. – Самарканд: 1982.